

**FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKILLIK FAOLIYATINING
KAFOLATLARI
VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINING O'ZIGA XOS
JIHATLARI**

Jo'rayev Javlonbek Norboboyevich

javlon-juraev@mail.ru

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash

va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik protsessida vakilning ishtiroki, vakillikning asoslari va ishda ishtirok etish tartibi, vakilning ishni sudda ko'rish bosqichida sudya tomonidan o'zining tashabbusiga ko'ra yoki taraflarning tavsiyasiga ko'ra tayinlanishi, ish holatlariga qarab jalb etilishi, shartnomaviy vakillik asosida faoliyat yurituvchi shaxslarning turlari, vakilning vakolatini rasmiylashtirish masalalari tahlil etildi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchilikda vakillik faoliyatining takomillashtirishga doir amaliy tajribasining avfzalliklari o'rganildi. Shuningdek, vakillik faoliyatini va qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: fuqarolik protsessi, vakil, ishonch bildiruvchi shaxs, advokat, qonuniy vakil, ishonchnoma, sudya.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari asosida mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishda odil sudlov muhim o'rin

tutishiga alohida e'tibor qaratilmoqda, sud mustaqilligini mustahkamlash, ishlarni ko'rishda xolislik, adolat va qonuniylikni taminlash choralari ko'rilmogda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlab qo'yilgan bo'lib, o'z navbatida, fuqarolar uchun malakali yuridik yordam turli shakllarda berilishi mumkin. Aynan suddagi vakillik malakali yuridik yordam ko'rsatishning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. FPKning 65-moddasida fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan va o'z vakillari orqali yuritishlari mumkinligi mustahlab quyilgan.

“Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi.

Tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki vakillari orqali yuritadi”.

Ushbu norma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining vakillik orqali ish yuritishga oid moddasi bo'lib, fuqarolarning ham yuridik shahslarning ham fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakilga ega bo'lish huquqlarini kafolatlaydi.

Fuqarolik protsessida vakillik faoliyati orqali ish yuritishga extiyoj borligining bir qancha sabablari mavjud. Shulardan ba'zilari: ishonch bildiruvchi shahsning protsessual haraktlarni amalga oshirishda qonun normalarini bilmasligi, yetarlicha bilmasligi yoki bilsa ham ishonchli himoyaga muxtojligi; professional faoliyat bilan shug'ullana olmasligi; muomalaga layoqatsizlik yoki muomala layoqatining cheklanganligi (bunday hollarda shahsning nomidan qonuniy vakil yoli qonuniy vakil tomonidan tayinlangan shartnomaviy vakil ham faoliyat

yuritadi); sud protsessiga qatnashish imkonining mavjud emasligi (horijiy davlatga ishlashga, xizmat safariga yoki ta'tilga chiqish); vaqtinchalik sanatoriya yoxud davolanish muassasida bo'lishi va shu kabi kundalik turmushda uchrab turadigan holatlar.

Sog'lom fikr nuqtai nazaridan ham ushbu yuqorida sanab o'tilgan va shu kabi boshqa holatlarda ishonch bildiruvchi shahsning nomidan vakilning faoliyat yuritishi protsess muddatining qisqarishiga, sud ish yurituvining ham osonlashuviga, ishonch bildiruvchi shaxsning manfaatlariga putr yetkazilmasligiga hamda ishonchli himoya funksiyasining amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Vakillik instituti fuqarolik huquqida keng qo'llanish sohasiga ega. Unga ehtiyoj nafaqat vakolat beruvchi shaxsning bu vazifalarni shaxsan o'zi bajara olmasligi (muomalaga layoqatsizligi, xizmat safariga ketganligi, kasalligi) balki, maxsus bilimlardan foydalanish, vaqtni tejash uchun ham qo'llaniladi.

Vakil yordamida nafaqat mulkiy, balki shaxsiy nomulkiy huquqlarni ham amalga oshirish mumki. Ba'zi adabiyotlarda holatga qarab belgilanuvchi vakillik to'g'risida ham fikr bildiriladi (aholiga ommaviy xizmat ko'rsatuvchi muayyan tashkilot xodimining muayyan joyda vazifalarni bajarish). O.Ioffening fikricha, vakolat yuridik fakt bo'lib hisoblanadi va vakolat beruvchining huquq layoqatiga vakilning muomala layoqatin qo'shilishining chegarasini belgilab beradi.

Bundan tashqari fuqarolik huquqida "tijorat vakilligi" degan tushuncha ham mavjud bo'lib, tadbirkorlar shartnoma tuzayotganida ular nomidan vakillik qiluvchi shaxs (tijorat vakili) vakilning vakolatlari ko'rsatilgan yozma shartnoma asosida, bundan vakolatlar ko'rsatilmagan taqdirda ishonchnoma asosida ham ish olib boradi.

Tijorat vakili o'zining ishtirokida tuzilgan shartnomadagi turli taraflarning manfaatlarini faqat bu taraflarning roziligi bilan hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollardagina ayni bir vaqtda ifodalashi mumkin.

Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, vakillik faoliyati orqali bugungi kunda ish yuritishning ko'lami kengayishi bilan bir qatorda qonunchilik normalari ham o'zgartirishlarni talab qilib qolmoqda. Ma'lumki, yangi normalarni joriy etishda eng samarali yo'l bu – rivojlangan xorij mamlakatlarining yutuq va kamchiliklarini o'rganish va ularning implementatsiya qilishda qonunchiligimizga to'g'ri keladigan jihatlarinigina qabul qilishdir.

Yevropa mamlakatlari fuqarolik protsessida vakillik faoliyati kafolatlarini belgilashda quyidagi umumiy prinsiplarga tayanadi:

- **adolatli sud muhokamasi** – har bir shaxs o'z huquqini samarali himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.
- **taraflar tengligi** – sudda ishtirokchi shaxslar huquqlari bir xil tarzda ta'minlanadi.
- **professional mustaqillik** – vakillar davlatdan mustaqil, faqat qonun va professional etikaga tayanadi.
- **ommaviy huquqiy yordam dasturlari** – ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar ham huquqiy himoyadan mahrum bo'lmasligi kerak.

Yevropa mamlakatlarida vakillik faoliyatining asosiy kafolatlaridan biri — **“protsessual tenglik” tamoyilidir.** Ya'ni:

- taraflar sud jarayonida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'ladi;

- davlat yordami sifatida yuridik yordam (Legal Aid) tizimi joriy etilgan.
- Masalan, Fransiyada moddiy ahvoli og'ir bo'lgan shaxslar davlat hisobidan advokat yordamini olishi mumkin.
- bu orqali huquqiy yordamdan faqat boy shaxslar emas, balki barcha fuqarolar foydalanishi kafolatlanadi.

Yevropa Ittifoqi qonunlari va Yevropa inson huquqlari konvensiyasi ham fuqarolik ishlarida vakillik faoliyatining kafolatlarini belgilaydi. Xususan:

- Konvensiyaning 6-moddasida “adolatli sudlanish huquqi”da taraflarga **kasbiy yordamchi orqali himoyalaniş huquqi** kafolatlangan.
- Yevropa Ittifoqi Direktivalarida esa davlatlar yuridik yordam tizimini tashkil etish va advokat faoliyatini huquqiy muhofaza qilish majburiyati yuklatilgan.

Xorijiy davlatlar fuqarolik protsessida vakillik faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak o'ziga xoslikni kuzatishimiz mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasida “Sud advokatni yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarining vakili bo'lmagan taqdirda, shuningdek federal qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda vakil qilib tayinlaydi. Sud tomonidan javobgarining vakili etib tayinlangan advokat ushbu ish bo'yicha sud qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega”.

Xuddi shunday normani Belarus Respublikasining qonunchiligida ham ko'rishimiz mumkin. Belarus Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 77-moddasida sud tomonidan vakil tayinlanadigan holatlar nazarda tutilgan.

“Sud quyidagi hollarda taraf yoki uchinchi shaxsga vakil tayinlaydi:

- 1) muomalaga layoqatsiz shaxs yoki uchinchi shaxs vakilining yo'qligi;
- 2) yashash joyi (joylashgan joyi) noma'lum bo'lgan javobgar vakilining yo'qligi;
- 3) vakil Belarus Respublikasining nikoh va oila kodeksida belgilangan asoslar bo'yicha sud ishini yuritish huquqiga yega bo'lmasligi;
- 4) qonunda belgilangan boshqa hollar.

Ushbu moddaning 1 va 3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda vasiylik va homiylik organi tomonidan vakil tayinlanishi, ushbu moddaning 2-bandida ko'rsatilgan holatda esa ularning roziligi bilan qarindoshlari va boshqa fuqarolar tayinlanishi mumkin".

Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 58-moddasida "tafrolar, qonuniy vakillar ishni yuritish uchun bir yoki ikki vakilni ish yuritishga tayinlashi mumkin. Advokatlar, yaqin qarindoshlar, tafrolarning yashash joyidagi tegishli jamoat tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan shaxslar, shuningdek, xalq sudi tomonidan tavsiya qilingan boshqa fuqarolar sudda vakil bo'lishi mumkin".

Ushbu kodeksning 60-moddasida "Agar vakilning vakolatlari o'zgartirilsa yoki bekor qilinsa, vakolati o'zgartirilgan taraf xalq sudini yozma ravishda xabardor qilishi, xalq sudi esa boshqa tarafni xabardor qilishi shart".

Vakilni ish yuritishga tayinlanishi masalasi Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligida ham o'z ifodasini topgan. "Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 4-bobi, 78-paragrafidagi protsessda advokat tarafning vakili sifatida majburiy ishtirok etishi belgilangan. Unga ko'ra, landgerixtax va boshqa yuqori turuvchi instansiya sudlarida tafrolar advokat orqali

ishtirok etadi, sudda faoliyat olib borish, ishni yurgizish va taraflarni tanishtirish vakolati advokat orqali amalga oshiriladi. Oilaviy ishlarda taraflar va ishda ishtirok shaxslar sudda ishda ishtirok eta oladigan advokatlar orqali tanishtiriladi”.

Germaniya qonunchiligida o‘ziga hos jihatlardan yana biri vakil sifatida “ishda ishtirok etuvchi advokat bir necha advokatlar tomonida sudda raislik etuvchining tanloviga ko‘ra tayinlanadi. Tayinlangan advokat vakillikka kirishishni taraf tomonidan avans to‘lovi to‘lanishiga bog‘liq qilib qo‘yishi mumkin, ishonchnoma to‘lovlari bo‘yicha Federal Nizomga muvofiq belgilanadi”.

Ayrim mamlakatlarda (*masalan, Polsha, Vengriya*) taraflar sudda huquqshunos bo‘lmagan ishonchli shaxs orqali ham ishtirok etishi mumkin, ammo sud ishlari yuqori instansiyada ko‘rilganda faqat advokat orqali vakillikka yo‘l qo‘yiladi.

Bu amaliyot taraflarga kasbiy malakali yordam olish imkoniyatini beradi va sud ishlari sifatli ko‘rib chiqilishi kafolatlanadi.

Ukraina Fuqarolik protsessual kodeksining 58-moddasiga ko‘ra “taraf, uchinchi shaxs, shuningdek, qonuniy ravishda boshqa shaxsning manfaatlarini ko‘zlab sudga murojaat qilish huquqi berilgan shaxs sud jarayonida shaxsan (o‘z-o‘zini vakillik qilish yo‘li bilan) va (yoki) vakil orqali ishtirok yetishi mumkin”.

Ushbu kodeks 60-modaning to‘rtinchi qismida “vakil bir vaqtning o‘zida bir necha da’vogarni yoki bir necha javobgarni yoki bir necha uchinchi shaxslar manfaatini bir tomondan ifodalashi mumkin, agar ular o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lmasa”.

Armaniston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasida vakilning maxsus ishonchnoma tuzishi lozim bo'lgan holatlar ko'rsatib o'tilgan. Ushbu moddaga ko'ra:

“Sudda ish yuritish uchun ishonchnoma vakilga ishonch bildiruvchining nomidan har qanday protsessual harakatni amalga oshirish huquqini beradi, bundan quyidagilar mustasno:

- 1) da'vo arizasini imzolash;
- 2) hakamlilik bitimi tuzish va nizoni arbitrajga taqdim yetishga rozilik berish;
- 3) da'volardan to'liq yoki qisman voz kechish;
- 4) da'volarni to'liq yoki qisman tan olish;
- 5) da'voning asosini va pretmetini yoki ulardan birini o'zgartirish;
- 6) hisob-kitob shartnomasini tuzish;
- 7) yarashuv bitimini tuzish;
- 8) litsenziyali konsiliator ishtirokida yarashuv tartibida ishtirok yetish;
- 9) vakolatni boshqa shaxsga o'tkazish (ishonchni o'tkazish);
- 10) sud xabarnomalari va protsessual hujjatlarni olish;
- 11) sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish;
- 12) ijro varaqasini berish to'g'risida ariza berish”.

Ushbu moddaning 1-qismida ko'rsatilgan harakatlarning har birini bajarish uchun ushbu vakolatlar vakilga berilgan ishonchnomada aniq nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilib aytishimiz mumkinki, fuqarolik protsessual qonunchiligimizni takomillashtirish, undagi vakillik institutiga oid

vakolatlarni kengaytirish, vakillarni fuqarolik sud ishlariga jalb qilish borasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladigan vaqt keldi.

Qonunchiligimizni takomillashtirish maqsadida **quyidagi takliflar** ilgari suriladi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasiga uchinchi qism sifatida "Yashash joyi (joylashgan manzili) noma'lum bo'lganligi sabali javobgarining sud protsessida qatnashishining imkoni bo'lmagan yoki uning vakili bo'lmagan taqdirda uning manfaatlarini sudda himoya qilish maqsadida sudya tomonidan advokat tayinlanadi. Sud tomonidan javobgarining vakili etib tayinlangan advokat ushbu ish bo'yicha sudning protsessual hujjatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega" talqinida normani kiritish kerak.

Ikkinchidan, sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkinligi qonunchilikda nazarda tutilgan. Lekin, hanuzgacha advokatning fuqarolik protsessida majburiy ishtirokiga oid norma va ushbu ishlarning turlari ko'rsatilmagan.

Vaholanki, bu borada Germaniya Federativ Respublikasida advokatning ishtiroki talab qilinadigan holatlar va Xitoy Xalq Respublikasida vakilning sud tomonidan tayinlanishiga oid normalar kiritilgan.

Shu sababli ham, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga 67¹-modda sifatida "Sud tomonidan vakilning ishga jalb qilish" nomli moddani kiritish lozim.

67¹-modda. Sud tomonidan vakilning ishga jalb qilish.

Sud quyidagi hollarda ishni ko'rishda vakil tayinlaydi: Oilaviy nizolarni hal etish bilan bog'liq (nikohni bekor qilish, erxotinning mol-mulkini bo'lish, bolani kim bilan qolishini belgilash, taraflar va uchinchi shaxslar ishda ishtirok etganda umuiy-mulkni bo'lishga oid ishlarda faqat yuqori instansiya sudlarida) ishlarni yuritishda sud tomonidan taraflarning advokati bo'lmasa, advokat tayinlanadi.

Sud muomalaga layoqatsiz shaxs yoki ishda mustaqil da'vo bilan chiquvchi uchinchi shaxsning vakolatlarini amalga oshira olmasligi ma'lum bo'lganda, shuningdek, qonunda ko'rsatilgan boshqa holatlarda vakil tayinlaydi.

Yuqoridagi ijobiy tajribalardan kelib chiqqan holda fuqarolik protsessida vakil ishtirokini ta'minlash yuzasidan advokat ishtirokining samaradorligini oshirish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatilishini kafolatlash maqsadida fuqarolik ishlarida shartnoma bo'yicha vakil sifatida advokat ishtirok etishi shart bo'lgan ishlar ro'yxatini protsessual qonunchilikda mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, protsessual qonun hujjatlaridagi vakilning sudda ishtirok etishi bilan bog'liq normalarni takomillashtirish, advokatning professional faoliyat yuritishidagi rolini oshirishning protsessual mexanizmini yanada takomillashuviga, fuqarolarning sud orqali ishonchli himoyalanish kafolatlarini kuchaytirishga, vakillik institutiga bo'lgan fuqarolarning ishonchini oshirishga, fuqarolik protsessual qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashuviga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/20/607/0279-son, 11.03.2020 y., 03/20/608/0278-son; 13.01.2021 y., 03/21/661/0011-son).

2. "Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Rossiyskoy Federatsii"ot 14.11.2002 N 138-FZ (red. ot 08.12.2020, s izm. ot 12.01.2021).

3. Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Respubliki Belarus. 11 yanvarya 1999 g. № 238-Z. (Zakon Respubliki Belarus ot 10 dekabrya 2020 g. № 69-Z (Natsionalnyy pravovoy Internet-portal Respubliki Belarus, 17.12.2020, 2/2788)).

4. Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Kitayskoy Narodnoy Respubliki. 58- statya. (Prinyat na 4-y sessii Vsekitayskogo sobraniya narodnykh predstaviteley sedmogo sozyva 9 aprelya 1991 g. Opublikovan Ukazom Predsedatelya Kitayskoy Narodnoy Respubliki № 44 ot 9 aprelya 1991 g. Vstupil v silu s 9 aprelya 1991 g.) (<http://legal-way.ru/iss09.php>).

5. D.Xabibullaev. Voprosy sovershenstvovaniya grajdanskogo protsessualnogo zakonodatelstva Respubliki Uzbekistan // "Fuqarolik protsessual huquqini rivojlantirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro davra suhbat materiallari. –Toshkent.: TDYuU. 2018. –S.79-81.

6. Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Germanii
<https://lawbook.online/protsess-zarubejnyih-grajdanskiy/grajdanskiy-protsessualnyykodeks-56683.html>.

7. Sivilniy protsesualniy kodeks Ukraïni (Vidomosti Verxovnoï Radi Ukraïni (VVR), 2004, № 40-41, 42, st.492).
(<https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/1618-15#Text>).

8. Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Respubliki Armeniya. Prinyat 09.02.2018.
(<http://www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=6196&lang=rus>)